

## Partiya tarixi

1995-yil 3-iyun kuni O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining ta’sis Qurultoyi qarori bilan partiya tashkil etildi.

1995-yil 10-iyun kuni “Milliy tiklanish” gazetasining ilk soni chop etildi.

1999-yil 8-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga bo‘lib o‘tgan saylovlarda partiyadan 12 nafar deputat saylangan.

2008-yil 20-iyun kuni O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi va Fidokorlar milliy demokratik partiyasining birlashuv qurultoyi bo‘lib o‘tib, ushbu ikki partiya negizida yangi O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi (O‘zMTDP) tashkil etildi.

Qurultoyda yangi partianing Markaziy Kengashi va Nazorat-taftish komissiyasi tarkiblari saylandi.

2008-yil 21-iyun kuni O‘zMTDP Markaziy Kengashining II Plenumi bo‘lib o‘tdi. Plenumda Markaziy Kengash Ijroiya Qo‘mitasi a’zolari 21 nafardan iborat tarkibda saylanib, ular orasidan Markaziy Kengash Ijroiya Qo‘mitasi raisi va uning Mafkuraviy ishlari, Tashkiliy va kadrlar ishlari, Xotin-qizlar masalalari hamda Yoshlar bilan ishslash bo‘yicha o‘rinbosarlari saylandi.

2008-yil 4-16 iyul kunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida ikki partianing birlashuv Konferensiyalari o‘tkazilib, ular negizida yangi partiyani tuzish bo‘yicha tashkiliy guruh shakllantirildi.

2008-yil 11-avgust kuni O‘zMTDP O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan ro‘yxatdan o‘tdi.

2008-yil 13-avgust kuni O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi va O‘zbekiston “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasi fraksiyalarining qo‘shma ta’sis yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi va Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O‘zMTDPning yangi fraksiyasi tuzildi.

2008-yil 9-sentyabrdan boshlab joylarda hududiy partiya tashkilotlarining ta’sis Konferensiyalari va Plenumlari o‘tkazildi. Jumladan, barcha hududlarda O‘zMTDP hududiy partiya tashkilotlarining ta’sis Konferensiya va Plenumlari o‘tkazildi.

Ularda Kengash, Nazorat-taftish komissiyasi, Kengash Ijroiya Qo‘mitasi tarkibi tasdiqlandi hamda Ijroiya Qo‘mitasi raisi va uning o‘rinbosarlari saylandi. Shuningdek, joylarda tuman (shahar) partiya tashkilotlarining ta’sis Konferensiya va Plenumlari o‘tkazilib, Kengash, Kengash Ijroiya Qo‘mitasi tarkibi tasdiqlandi hamda Ijroiya Qo‘mitasi raislari saylandi.